

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar
kafedrası o'qituvchisi Qarshiboyeva Zuxra Abduxabovnaning
“Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari”
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Mazkur amaliy dars mavzusi “O'zbek tilining sohada qo'llanilishi” fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Mavzuga oid topshiriq va mashqlarni tanlashda talabalarning ta'lim yo'nalishi hisobga olinganligi ularning maqsadga muvofiqligini ta'minlash birga dars sifati va samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda mavzuning keng qamrovliligi hisobga olinganligi, boshqa fanlar hamda o'tilgan mavzular bilan bog'langanligi, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanganligi o'qituvchining tajribali pedagog ekanligini namoyish etadi. Tanlangan mashq va topshiriqlarning rang-barangligi va mavzuga mosligi darsning qiziqarliligini ta'minlaydi.

O'qituvchi **Qarshiboyeva Zuxra** tomonidan tayyorlangan “Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari” mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni “O'zbek tilining sohada qo'llanilishi” fanining o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

O'zbek, rus tillari adabiyoti va
xorijiy tillar kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD



S.Ulliyeva

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar
kafedrası o'qituvchisi Qarshiboyeva Zuxra Abduraxobovnaning
"Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari"
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga**

TAQRIZ

Amaliy dars mavzusi "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan hamda uslubiy tomondan tashkil qilingan. Darsda mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyasi, tayanch so'z va iboralar batafsil berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan.

Taqdimotda belgilangan mavzu haqida to'liq ma'lumotlar qamrab olingan, adabiy nutq uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy uslub bo'yicha ma'lumotlar bilan boyitilgan. Amaliy mashg'ulotda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali va o'rinni foydalanilgan, shuningdek fanga yangicha yondashilgan, unda o'zbek tilidan o'qish, tinglab tushunish, yozish, so'zlash ko'nikmalari bo'yicha ham topshiriqlar berilgani bilan ahamiyatli dir.

O'zbek tili o'qituvchisi **Qarshiboyeva Zuxra** tomonidan tayyorlangan "Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

O'zbek, rus tillari adabiyoti va
xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi, PhD



D. Yunusova